

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA
BERUVCHI PhD.03/30.12.2019Yu.20.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI
AKADEMIYASI**

XASANOV ABDURAXIM VAXAPOVICH

**IDORAVIY HUQUQ IJODKORLIGINI TAKOMILLASHTIRISH
(ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI MISOLIDA)**

12.00.01 - Davlat va huquq nazariyasi va tarixi; Huquqiy ta’limotlar
tarixi

**yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of the abstract of the dissertation of the Doctor of Philosophy(PhD)

Xasanov Abduraxim Vaxarovich

Idoraviy huquq ijodkorligini takomillashtirish (Ichki ishlar vazirligi misolida).....3

Xasanov Abduraxim Vaxarovich

Совершенствование ведомственного правотворчества (на примере Министерства внутренних дел).....22

Khasanov Abdurakhim Vakhapovich

Improving departmental law-making (using the example of the Ministry of Internal Affairs).....35

E'lon qilingan ilmiy ishlar ro'uxati

Список опубликованных научных работ
List of published scientific works.....47

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA
BERUVCHI PHD.03/30.12.2019Yu.20.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI
AKADEMIYASI**

XASANOV ABDURAXIM VAXAPOVICH

**IDORAVIY HUQUQ IJODKORLIGINI TAKOMILLASHTIRISH (ICHKI
ISHLAR VAZIRLIGI MISOLIDA)**

12.00.01 - Davlat va huquq nazariyasi va tarixi; Huquqiy ta’limotlar
tarixi

**yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Nukus – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi oliy attestatsiya komissiyasida V2024.2.PhD/Yu1401 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi akademiyasida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.karsu.uz) va “Ziyonet” Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Sattarov Abdug‘ofur Xamidovich,
yuridik fanlar doktori, professor

Rasmiy opponenlar:

Muxamedov Utkirbek Xazratkulovich
yuridik fanlar doktori, professor

Utemuratov Maxmud Ajimuratovich
yuridik fanlar nomzodi, professor

Yetakchi tashkilot:

Ichki ishlar vazirligi Malaka oshirish instituti

Dissertatsiya himoyasi Qoraqalpoq davlat universiteti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi PhD.03/30.12.2019Yu.20.02 raqamli ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2025-yil 11-iyun kuni soat 10:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 230100, Nukus shahri, Ch. Abdirov ko‘chasi, 1-uy. Tel.: (+99861) 223-60-49, faks: (+99861) 223-60-49, e-mail: karsu_info@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Qoraqalpoq davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (319 raqami bilan ro‘yxatga olingan (Manzil: 230100, Nukus shahri, Ch. Abdirov ko‘chasi, 1-uy. Tel.: (+99861) 223-60-49; faks: (+99861) 223-60-49).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “26” iyun kuni tarqatildi.

(2025-yil “26” iyundagi №1-raqamli reyestr bayonnomasi).

E.D. Kutibaeva

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, yuridik fanlar doktori, professor

G.M. Berdimuratova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

I.T. Tulteyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash huzuridagi ilmiy seminar raisi, yuridik fanlar doktori, professor

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda qonun ustuvorligi va qonuniylikni mustahkamlash, inson huquqlari va manfaatlarini ishonchli himoya qilishga qaratilgan qonunchilik tizimini ta'minlash masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. BMTning 2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi maqsadlarida "milliy darajada huquq ustuvorligiga ko'maklashish hamda barcha uchun odil sudlovdan foydalanish bo'yicha teng imkoniyatlarni ta'minlash" vazifasi belgilangan.

Jahonda huquq ijodkorligi sohasi bo'yicha qator ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda, jumladan, normativ-huquqiy hujjatlarni tayyorlash jarayonini nazariy-huquqiy tahlil qilish, davlat boshqaruvi organlari tomonidan qonunosti normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqishni o'rganish, qonun va idoraviy hujjatlarning o'zaro nisbatini tadqiq etish hamda idoraviy huquq ijodkorligi faoliyatini takomillashtirish yo'llarini aniqlash, uning asosliligi va qonuniyligini ta'minlash choralarini ishlab chiqish masalalariga ilmiy ahamiyat kasb etuvchi tadqiqot yo'nalishi kabi alohida e'tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda yangilangan konstitutsiyaviy-huquqiy sharoitlarda sodda va ixcham qonunchilik tizimini yaratish, "norma ijodkorligi faoliyatining islohotlar bilan uyg'unligini ta'minlash va davlat huquqiy siyosatining institutsional asoslarini rivojlantirish", "idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilishning aniq chegaralarini belgilash orqali ularning sonini keskin qisqartirish" masalalari ustuvor vazifa etib belgilangan bo'lib, ularni hal qilish idoraviy darajada huquq normalarini yaratish va amalga oshirish jarayonini tahlil qilishni, uni takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishni dolzarb etib belgilamoqda.

O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi, "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi (2021), "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi (2016), "Qonunlar loyihalarini tayyorlash va Qonunchilik palatasiga kiritish tartibi to'g'risida"gi (2006) qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Norma ijodkorligi faoliyatini takomillashtirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi (2018), "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi (2022), "Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini amalga oshirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi (2023), "O'zbekiston – 2030 strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi (2023) farmonlari va mavzuga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining "I. Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Huquq ijodkorligi muammosi respublikamizning yuridik fanida markaziy o'rinlardan birini egallaydi. U

A.A. Azizxodjayev, L.M. Boyko, Z.M. Islomov, O'.X. Muhamedov, M.K. Najimov, H.T. Odilqoriyev, A.X. Saidov, U. Tojixonov, I.T. Tulteyev, M.M. Fayziyev, E.H. Xalilov, Sh.Z. O'razayev, O.T. Husanov kabi olimlar tomonidan ancha mufassal o'rganilgan. Ko'rsatilgan muammolar xorijlik olimlar S.S. Alekseyev, Y.G. Arzamasov, V.V. Lapayeva, M.A. Pashkeyev, A.S. Pigolkin, S.V. Polenina, Y.A. Tixomirov va boshqalar tomonidan tadqiq etilgan.

So'nggi yillarda huquq ijodkorligi faoliyatining nazariyasi va metodikasi sohasida ko'p sonli ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, MDH mamlakatlarida idoraviy huquq ijodkorligi muammolarini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlar o'tkazilgan¹.

Mamlakatimizda esa idoraviy huquq ijodkorligining ba'zi bir jihatlariga bag'ishlangan tadqiqotlar o'tkazilgan. Jumladan, H.T. Odilqoriyevning doktorlik dissertatsiyasida (1995) qonun ijodkorligi faoliyatining umumiy nazariy muammolari, uning mohiyati, mazmuni, amalga oshirish prinsiplari va asosiy bosqichlari o'rganilgan. A.M. Hoshimxonovning nomzodlik dissertatsiyasida (2008) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huquq ijodkorligi faoliyatining nazariy va amaliy masalalari tadqiq etilgan. A.X. Sattorov ichki ishlar organlarining huquqni muhofaza qilish faoliyatini huquqiy ta'minlashning ba'zi bir jihatlarini ko'rib chiqqan. Shuningdek, A.Q. Xudoyberdiyevning doktorlik dissertatsiyasida (2020) ichki ishlar organlari huquq ijodkorligi faoliyatini sotsiologik va ekspert-tahliliy ta'minlashni takomillashtirishning ayrim masalalari tadqiq qilingan. O.R. Fayziyevning yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori dissertatsiyasida (2018) vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning buyruqlari hamda qarorlarini huquqiy ekspertiza va davlat ro'yxatidan o'tkazish faoliyati masalalari tadqiq etilgan. D.R. Artikovning yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori dissertatsiyasida (2021) idoraviy normativ-huquqiy hujjatni haqiqiy emas deb topish to'g'risidagi ishlarni sudda ko'rishning ma'muriy-huquqiy jihatlarini o'rganilgan.

Umuman olganda, shuni qayd etish mumkinki, vazirliklar va idoralar, idoraviy huquq ijodkorligining, shu jumladan, ichki ishlar vazirligi huquq ijodkorligining nazariy va amaliy muammolari hali lozim darajada o'rganilmagan. Huquq ijodkorligi masalalariga yuridik fanning turli tarmoqlari vakillarining qiziqishi ancha kuchli ekanligiga qaramay, idoraviy huquq ijodkorligi muammolariga bag'ishlangan kompleks nazariy-huquqiy tadqiqot hanuzgacha mavjud emas.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi akademiyasi ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga kiritilgan va "Davlat hokimiyatini demokratlashtirish va huquqni amalga oshirish mexanizmini takomillashtirish" ilmiy tadqiqot ishi doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi idoraviy huquq ijodkorligini mazkur ichki ishlar organlari yuridik faoliyati misolida kompleks tahlil qilishdan hamda sohani rivojlantirishga qaratilgan taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

¹ Mazkur olimlarning ilmiy ishlari dissertatsiya ishining foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida berilgan.

Tadqiqotning vazifalari:

idoraviy huquq ijodkorligining tabiatini ochish, unga ta'rif berish va o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash;

idoraviy huquq ijodkorligini tasniflash mezonlarini aniqlash va shu asosda uni turlarga ajratishni amalga oshirish;

Ichki ishlar vazirligi idoraviy huquq ijodkorligining o'ziga xos xususiyatini aniqlash;

Ichki ishlar vazirligining huquq ijodkorligi faoliyatini amalga oshirish jarayonini tahlil qilish;

idoraviy huquq ijodkorligi faoliyatining asosiy negizlari hisoblanuvchi prinsiplarni tahlil qilish;

idoraviy huquq ijodkorligi faoliyatining texnik-yuridik jihatlarini o'rganish;

Ichki ishlar vazirligi huquq ijodkorligi faoliyatining samaradorligini oshirish muammolarini tahlil qilish hamda qonun hujjatlarini takomillashtirishga oid taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti idoraviy huquq ijodkorligi jarayonida yuzaga keluvchi va uni ichki ishlar vazirligi yuridik faoliyatining o'ziga xos turi sifatida tavsiflovchi ijtimoiy munosabatlar tizimi.

Tadqiqotning predmeti ichki ishlar vazirligi idoraviy huquq ijodkorligi faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar, huquqni qo'llash amaliyoti, xorijiy mamlakatlar qonunchiligi va amaliyoti hamda konseptual yondashuvlar, ilmiy-nazariy qarashlar va huquqiy kategoriyalar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotni amalga oshirish jarayonida tizimli, tarixiy tahlil, analiz va sintez, mavhumlashtirish, taqqoslash, gipotezalarni keltirib chiqarish, sotsiologik, statistik tahlil, formal-yuridik metod, qiyosiy-huquqiy metod, huquqiy prognoz qilish kabi usullardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

idoralar nomidan qaror qabul qilish ularning kollegial organlari tomonidan amalga oshirilganda normativ-huquqiy hujjat turini aniqlash zarurligi asoslangan;

vazirliklar va idoralarning buyruqlari hamda qarorlarini boshqa vazirliklar yoki idoralar bilan kelishilgan holda qabul qilish tartibini belgilash zarurligi asoslab berilgan;

vazirlik yoki idora qayta nomlangan taqdirda uning ilgarigi nomi ko'rsatilgan normativ-huquqiy hujjatlarning qayta nomlanishiga oid qismiga o'zgartirish yoki qo'shimcha kiritilishi lozim. Bunday o'zgartirishlar yoxud qo'shimchalar kiritilguniga qadar ilgarigi nomni o'z ichiga olgan normativ-huquqiy hujjatlarning amal qilishi qayta nomlangan vazirlikka yoki idoraga nisbatan to'liq hajmda tatbiq etilishi zarurligi asoslangan;

agar normativ-huquqiy hujjatni qabul qilgan vazirlikning yoki idoraning ijtimoiy munosabatlarning muayyan sohasini huquqiy jihatdan tartibga solish uchun maxsus vakolati bo'lsa, ushbu organ qabul qilgan hujjat bir xil maqomdagi boshqa vazirlik yoki idora tomonidan qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatga nisbatan yuqoriroq yuridik kuchga ega bo'lishi zarurligi haqidagi qoida asoslab berilgan;

vazirliklar, idoralar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar hamda vazirliklar va idoralarning harbiy qismlari, harbiy tuzilmalari, hokimlar va boshqa mansabdor shaxslar tomonidan

qonunlarning ijro etilishi, shuningdek, ular tomonidan qabul qilinayotgan hujjatlarning O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga muvofiqligi prokuror nazorati predmeti hisoblanishi zarurati asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

“Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi, “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi qonunlarga, Idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarni tayyorlash va qabul qilish qoidalariga tegishli o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish bo‘yicha takliflar asoslangan;

Ichki ishlar organlari normativ hujjatlarining tili va uslubini hamda ularda qo‘llanayotgan terminologiyani birxillashtirish maqsadida yagona terminologiyani va ularning ro‘yxatini ishlab chiqish taklifi asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishda qo‘llangan usullar, uning doirasida foydalanilgan ilmiy-nazariy yondashuvlar rasmiy manbalardan olingani, xalqaro tajriba va milliy qonunchilik normalarining o‘zaro tahlil qilingani, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilgani, natijalarning yetakchi milliy va xorijiy nashrlarda e‘lon qilingani, vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Idoraviy huquq ijodkorligini tadqiq etishning ilmiy ahamiyati ishlab chiqilgan ilmiy-nazariy xulosalar, taklif va tavsiyalardan huquq ijodkorligi nazariyasini rivojlantirishda, yurisprudensiya sohasida keyingi nazariy tadqiqotlarda, shuningdek, vazirlik va idoralarning norma ijodkorligi faoliyatini takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Ushbu tadqiqot natijalari keyingi nazariy izlanishlar uchun, shuningdek, yuridik soha oliy o‘quv yurtlarining o‘qituvchilari uchun davlat va huquq nazariyasi, davlat boshqaruvi nazariyasi, konstitutsiyaviy huquq fanlarini o‘qitish jarayonida, amaliy xodimlarning malakasini oshirish kurslarida, huquq nazariyasining huquq ijodkorligi muammolariga taalluqli bo‘lgan masalalari bo‘yicha ma‘ruzalar va o‘quv qo‘llanmalarini tayyorlashda e‘tiborga molik bo‘lishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Idoraviy huquq ijodkorligi tadqiqoti natijasida olingan xulosalar quyidagilarda joriy qilingan:

idoralarining kollegial organlari tomonidan qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatni nomlash zarurligiga oid taklifdan O‘zbekiston Respublikasining “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi O‘RQ-682-son Qonuni 14-moddasi to‘rtinchi qismiga o‘zgartishlar kiritishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutining 2024-yil 19-martdagi №01/q-08-37-sonli ma‘lumotnomasi). Ushbu taklifning joriy qilinishi ushbu turdagi idoraviy normativ-huquqiy hujjatning nomini aniqlashtirishga, shuningdek, idoralar kollegial organlarining huquq ijodkorligi vakolatlarini aniqlashtirishga xizmat qilgan;

vazirliklar va idoralarning buyruqlari hamda qarorlarini boshqa vazirliklar yoki idoralar bilan kelishilgan holda qabul qilish tartibini belgilashga oid taklifdan O‘zbekiston Respublikasining “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi O‘RQ-682-son Qonuni 14-moddasi beshinchi qismiga o‘zgartishlar kiritishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutining 2024-yil 19-martdagi №01/q-08-37-sonli ma‘lumotnomasi).

Ushbu taklifning joriy qilinishi idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarni kelishish tartibini, shuningdek, idoralarning huquq ijodkorligi vakolatlarini aniqlashtirishga xizmat qilgan;

vazirlik yoki idora qayta nomlangan taqdirda uning ilgarigi nomi ko'rsatilgan normativ-huquqiy hujjatlarning qayta nomlanishiga oid qismiga o'zgartirish yoki qo'shimcha kiritilishi lozimligiga oid taklifdan O'zbekiston Respublikasining "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi O'RQ-682-son Qonuni 15-moddasi uchinchi qismiga o'zgartishlar kiritishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutining 2024-yil 19-martdagi №01/q-08-37-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu taklifning joriy qilinishi vazirlik va idoralar qayta tashkil etilgan yoki qayta nomlanganda idoraviy normativ-huquqiy hujjatning amal qilish muddati hamda tartibini aniqlashtirishga xizmat qilgan;

ijtimoiy munosabatlarning muayyan sohasini huquqiy jihatdan tartibga solish uchun maxsus vakolati bo'lgan organ tomonidan qabul qilingan hujjat bir xil maqomdagi boshqa vazirlik yoki idora tomonidan qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatga nisbatan yuqoriroq yuridik kuchga ega bo'lishini belgilashga oid taklifdan O'zbekiston Respublikasining "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi O'RQ-682-son Qonuni 18-moddasi beshinchi qismini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutining 2024-yil 19-martdagi №01/q-08-37-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu taklifning joriy qilinishi turli idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarning yuridik kuchi bo'yicha nisbatini aniqlashtirishga, shuningdek, ularni qo'llash amaliyotining qonuniyligi va birxilligini ta'minlashga xizmat qilgan;

vazirliklar va idoralar tomonidan qabul qilinayotgan hujjatlarning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga muvofiqligi prokuror nazorati predmeti hisoblanishini belgilashga oid taklifdan O'zbekiston Respublikasining "Prokuratura to'g'risida"gi 746-XII-sonli Qonuni 20-moddasini takomillashtirishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutining 2024-yil 19-martdagi №01/q-08-37-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu taklifning joriy etilishi vazirliklar va idoralar tomonidan qabul qilinayotgan idoraviy normativ-hujjatlarning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga muvofiqligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta ilmiy anjumanda, jumladan, 4 ta xalqaro, 2 ta respublika miqyosida o'tkazilgan ilmiy-amaliy konferensiya, davra suhbatlari va seminarlarda sinovdan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Mazkur tadqiqot natijalari bo'yicha jami 14 ta ilmiy ish, jumladan, 1 ta monografiya, Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola (shundan 2 ta maqola xorijiy jurnalda) va to'plamlar tarkibida 6 ta ilmiy maqola chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, 9 paragrafdan iborat uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 140 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiya **kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, uning respublikaning ilm-fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlari bilan aloqasi, muammoning o‘rganilganlik darajasi hamda mavzuning dissertatsiya bajarilgan oliy o‘quv yurti ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi bayon qilingan, maqsad va vazifalar yoritilgan, tadqiqot obyekti, predmeti va metodlari, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari tavsiflangan, olingan natijalarning ishonchligi asoslab berilgan, ularning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi va joriy etilishi haqidagi ma‘lumotlar, shuningdek, chop etilgan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi haqida ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Idoraviy huquq ijodkorligining nazariy-huquqiy asoslari”** deb nomlanadi va unda idoraviy norma ijodkorligi tushunchasi va mohiyati, uning huquqiy tartibga solish mexanizmida tutgan o‘rni, idoraviy huquqiy tartibga solish obyekti, shuningdek, uning natijasi – vazirliklarning normativ-huquqiy hujjatlari tahlil qilingan.

Mazkur bob doirasida dissertant tomonidan idoraviy huquq ijodkorligining nazariy-huquqiy asoslari tahlil qilingan hamda ichki ishlar organlari faoliyati huquqiy tartibga solinishi bir nechta darajada, jumladan, idora darajasida amalga oshirilishi haqida xulosa chiqarilgan. Shu bilan birga, idoraviy norma ijodkorligi muhim huquq ijodkorligi turi sifatida huquqiy tartibga solish mexanizmining ajralmas qismi, qonunlar va boshqa yuqori turuvchi normativ-huquqiy hujjatlarning amalga oshirilishini ta‘minlovchi muhim vosita ekani asoslab berilgan.

Tadqiqotchi idoraviy huquq ijodkorligini idoraning (ya‘ni vazirliklar va ularga tenglashtirilgan davlat boshqaruvi organlarining) maxsus huquqiy faoliyati sifatida ko‘rib chiqadi. Idoraviy huquq ijodkorligi idoraga berilgan vakolatlar doirasida amalga oshiriladi va o‘z faoliyat sohasiga tegishli bo‘lgan ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilish, o‘zgartirish va bekor qilishdan iboratdir.

Turli mualliflar (X.T. Odilqoriyev, Z.M. Islomov, I.T. Tulteyev, D.R. Artiqov va boshqalar)ning nazariy yondashuvlari va fikrlarini tahlil qilgan holda, dissertant quyidagilarni ta‘kidlaydi: **“idoraviy huquq ijodkorligi”** atamasi yuridik adabiyotlarda an‘anaviy deb e‘tirof etilgan, u qonunosti huquq ijodkorligining bir turi bo‘lib, normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilish vakolatiga ega bo‘lgan alohida subyekt tomonidan amalga oshiriladi. Shunday ekan, **“idoraviy huquq ijodkorligi”** atamasini Ichki ishlar vazirligining boshqaruv va tashkiliy funksiyalari doirasida amalga oshirilayotgan norma ijodkorligi faoliyatiga nisbatan qo‘llash to‘liq asoslanadi.

Shu bilan birga, dissertant vazirliklarning qonunchilik va hukumat hujjatlari loyihalari ustidagi faoliyatini sof idoraviy norma ijodkorligi emas, balki qonun ijodkorligi yoki hukumatning huquq ijodkorligida ishtirok etish, unga ko‘maklashish sifatida baholaydi. Idoraviy huquq ijodkorligining asosiy belgisi bevosita idora tomonidan qabul qilingan normativ-huquqiy hujjat shaklidagi natijadir.

Idoraviy huquq ijodkorligini respublika ijro etuvchi hokimiyat organlarining davlat boshqaruvidagi maxsus huquqiy shakli sifatida tan olgan holda, muallif

idoraviy huquqiy ijodkorlikning idoraga yuklatilgan funksiyalarni to‘laqonli amalga oshirish vositasi va usuli sifatida obyektiv zarurligi va ehtiyoji borligi xulosasiga keladi. U (idoraviy huquq ijodkorligi) huquqiy tartibga solish mexanizmida tegishli o‘rinni egallaydi (qonunlar, davlat boshlig‘i va hukumatning normativ-huquqiy hujjatlaridan keyingi bosqichda) va ularga nisbatan yordamchi, ta‘minlovchi rol o‘ynaydi, shu jumladan, Ichki ishlar vazirligi ham.

Mamlakatda tub islohotlar amalga oshirilayotgan sharoitda huquqni muhofaza qilish faoliyati bugungi kunda yangi mazmun va ahamiyat kasb etmoqda. Avvalo, bu faoliyat inson, jamiyat va davlatning huquq va erkinliklarini himoya qilish funksiyalarini amalga oshirishdan iboratdir. “Ichki ishlar” tushunchasini Ichki ishlar vazirligining faoliyat sohasi sifatida ko‘rib chiqib, dissertant ichki ishlar organlarining huquqni muhofaza qilish faoliyati huquqni qo‘llash xarakteriga ega ekaniga, ya‘ni qonun normalarini amalga oshirishga qaratilganligiga e‘tibor qaratadi. Umuman olganda, qonunlar bilan tartibga solingan bo‘lsa-da, bu faoliyat qonun normalarini amalda qo‘llash jarayonini huquqiy jihatdan tartibga solish nuqtayi nazaridan huquqiy ta‘minlashga muhtojdir.

Muallif konstitutsiyaviy qonun ustuvorligi tamoyilini amalga oshirish bo‘yicha ko‘rilayotgan choralar doirasida ichki ishlar organlari faoliyati bilan bog‘liq ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solish mexanizmida idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarning ulushi bosqichma-bosqich kamayib borayotganini ta‘kidlaydi. Ushbu tendensiya vazirlikning huquq ijodkorligi vakolatlarini cheklab, huquq ijodkorligi funksiyasini tartibga solgan holda bir vaqtning o‘zida ichki ishlar organlari faoliyatida qonuniylikning mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

Tadqiqotchining fikricha, Ichki ishlar vazirligining normativ-huquqiy hujjatlari vazirlik tizimiga kiruvchi organlar, bo‘linmalar, tashkilotlar va korxonalarining ko‘p qirrali xizmat faoliyatini tartibga solgan holda, har doim jamoat tartibini saqlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish maqsadini ko‘zlaydi. Ichki ishlar vazirligining normativ-huquqiy hujjatlari normativ-huquqiy hujjatlar iyerarxiyasida quyi bosqichni egallaydi va ular qonunni bajarish maqsadida qabul qilingan hujjatlar sifatida amal qiladi. Ular aniqlashtiruvchi, ta‘minlovchi, yordamchi rolni bajaradi hamda hech qanday holatda qonunning o‘rnini bosa olmaydi. Aynan shunda qonun ustuvorligi tamoyili namoyon bo‘ladi.

Dissertantning fikricha, ichki ishlar organlari faoliyatining asosiy mazmuni huquqni muhofaza qilish faoliyatini tashkil etish bilan bog‘liq. Vazirlikning norma ijodkorligi faoliyati aynan shu yo‘nalishga qaratilgan. Jamoat tartibini saqlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi ishlarni tashkil etish, o‘zaro hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, xodimlar harakatlarining ketma-ketligini belgilash – bularning barchasi umumiy tartibda qonun bilan tartibga solinadi hamda idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarning asosiy mazmuni va ularning tartibga solish obyekti hisoblanadi. Ushbu hujjatlarning muhimligi shundaki, ular juda muhim tartibga solishni talab qiluvchi vazifa – huquqni qo‘llash jarayonini tashkil etish, ichki ishlar organlari faoliyatini tashkil etish masalasini hal etadi.

Muallif ta‘kidlaydiki, agar qonun normalari ichki ishlar organlari zimmasiga majburiyatlar yuklasa, ularni muayyan huquqlar bilan ta‘minlasa, javobgarlikning

asoslari, tarkibi, chegaralari va subyektlarini belgilasa, unda idoraviy hujjatlar normalari, avvalo, ushbu qonun normalarining bajarilishini ta'minlashi va tashkil qilishi kerak.

Ichki ishlar vazirligining so'nggi yillardagi norma ijodkorligi faoliyati tahlili shuni ko'rsatadiki, 2021-yilda — 503 ta, 2022-yilda — 564 ta, 2023-yilda — 761 ta, 2024-yilda — 503 ta, 2025-yilning ikkinchi choragida esa 440 ta buyruq qabul qilingan. Shu bilan birga, ularning faqat bir qismi normativ tusga ega. 2021–2024-yillarda Adliya vazirligida huquqiy ekspertizadan o'tgan va davlat reyestrda ro'yxatga olingan idoraviy normativ-huquqiy hujjatlar soni 78 tani tashkil etgan, shundan 49 tasi buyruq, 29 tasi qaror shaklida qabul qilingan.

Dissertant idoraviy normativ-huquqiy hujjatlar ijro hokimiyati davlat organlarining qonunosti huquqiy hujjatlari bo'lib, ular bunday hujjatlarga xos bo'lgan belgi va xususiyatlarga ega ekanligini ta'kidlaydi. Ularning asosiy xususiyati shundaki, huquq-tartibotni va qonuniylikni saqlash, fuqarolar, jamiyat va davlatning huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini ta'minlash sohasidagi faoliyatni huquqiy jihatdan ta'minlashga qaratilgan bo'ladi.

Idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarning vazifasi shundaki, ular qonunlar va davlat hokimiyatining oliy organlari tomonidan qabul qilingan boshqa hujjatlarni ularning maqsad va mohiyatiga mos kelgan holda “texnologik tartibdagi” tafsilotlardan “bo'shatish”ga xizmat qiladi. Idoraviy huquq ijodkorligi vazirlikning boshqaruv faoliyatining bir qismini tashkil etadi va uning faoliyatini huquqiy tartibga solish mexanizmining ajralmas elementi hisoblanadi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Ichki ishlar vazirligi idoraviy huquqiy ijodkorligining mazmuni va shakllari”** deb nomlangan bo'lib, u to'rtta paragrafdan iborat. Mazkur bobda vazirlikning idoraviy huquq ijodkorligi faoliyatini tashkil etish va rejalashtirish, huquq ijodkorligi faoliyatining mazmuni, idoraviy normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini kelishish va qabul qilish tartibi masalalari tadqiq qilingan.

Dissertant normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish jarayonini murakkab ijodiy tashkiliy jarayon sifatida, jumladan, huquqiy tartibga solish holatini tahlil qilish, idoraviy tartibga solish zaruriyatini aniqlash, huquqiy tartibga solishning muammolari, kamchiliklari va ziddiyatlarini o'rganish, prognozlash, tartibga solish vazifalari va vositalarini aniqlash, loyiha matnini shakllantirish, uni muvofiqlashtirish va muhokama qilishni ko'rib chiqadi.

Normativ-huquqiy ijodkorlik faoliyatini rejalashtirish zarurati uning natijalari boshqaruv qarori ekanligi bilan belgilanadi. Aynan shu holat Ichki ishlar vazirligining huquq ijodkorligi faoliyatini rejalashtirishni tartibga solish muhimligini belgilaydi. Muallifning ta'kidlashicha, “O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi to'g'risida”gi nizomda ichki ishlar organlari faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilish hamda ularga yuklangan vazifa va funksiyalarni amalga oshirish tartibiga oid normalar belgilangan bo'lsa-da, unda huquq ijodkorligi faoliyatini rejalashtirishga oid normalar mavjud emas.

Tadqiqotchining fikriga ko'ra, norma ijodkorligini rejalashtirish vazirlikning idoraviy huquqiy tartibga solish holati uchun mas'uliyatini oshiradi, normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini o'z vaqtida va sifatli tayyorlashni ta'minlaydi. Norma

ijodkorligi subyektlari reja asosida tegishli tahliliy materiallarni tayyorlashi, huquqiy tartibga solishni talab qiluvchi amaliyotni o'rganishni tashkil etishi, normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini puxta tuzishi, ularni muhokama qilish, kelishish va tasdiqlashga kiritishni tashkil qilishi lozim. Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini tayyorlash jarayonining yagona va sifatli bo'lishini ta'minlash maqsadida muallif vazirlikda huquq ijodkorligi faoliyatini rejalashtiruvchi subyektlar doirasini, shuningdek, huquq ijodkorligi bilan shug'ullanuvchi shaxslarning vazifa, funksiya va vakolatlarini aniq belgilash zarur, deb hisoblaydi.

Ichki ishlar vazirligining normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish, ularni kelishish va tasdiqlash hamda e'lon qilishni ta'minlovchi bo'linmasi – vazirlikning Tashkiliy departamenti Yuridik ta'minlash boshqarmasidir. Ushbu boshqarma vazifalariga Ichki ishlar vazirligi faoliyatining huquqiy ta'minoti, sudlarda vakillik qilish va boshqa funksiyalar kiradi. Muallifning fikricha, ushbu bo'limning asosiy vazifalari vazirlik tizimidagi normativ-huquqiy hujjatlar holatini baholash va rejalashtirishni o'z ichiga olishi kerak.

Muallif idoraviy norma ijodkorligi vakolatli shaxsning norma o'rnatuvchi faoliyati hisoblanadi, degan xulosaga kelgan, chunki vazirlik vakolatlari doirasidagi normativ-huquqiy hujjatlar bevosita vazir tomonidan qabul qilinadi. Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini dastlabki muhokama qilish va ma'qullash tartiblariga alohida e'tibor qaratilgan. Dissertatsiya muallifining fikricha, normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini manfaatdor idoralar bilan kelishish faqat ularning faoliyat predmeti va vakolatlari doirasiga kiruvchi masalalarni tartibga solish vakolatiga ega bo'lgan hollardagina zarur. X.T. Odilqoriyev, A. Xoshimxonov, O. Fayziyev kabi olimlar fikrlarini inobatga olgan holda dissertant idoraviy normativ-huquqiy hujjatlar yuzasidan Adliya vazirligi tomonidan huquqiy ekspertiza o'tkazilishi va davlat ro'yxatidan o'tkazilishi alohida ahamiyatga ega ekanini asoslab beradi.

Muallif qonun ijodkorligi jarayonini Ichki ishlar vazirligining norma ijodkorligi bilan bog'liq holda tahlil qilar ekan, u quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi, degan xulosaga keladi: a) normativ-huquqiy hujjatni qabul qilish zaruriyatini aniqlash; b) idoraviy normativ-huquqiy hujjatlar loyihasini tayyorlash va uni rasmiylashtirishni tashkil etish; d) loyihani kelishish; e) idoraviy normativ-huquqiy hujjatni qabul qilish; f) huquqiy ekspertiza o'tkazish va idoraviy hujjatni Adliya vazirligida davlat ro'yxatidan o'tkazish; g) rasmiy e'lon qilish.

Dissertantning fikricha, idoraviy norma ijodkorligining muhim jihatlaridan biri uning huquq ijodkorligi vakolatlariga qat'iy rioya qilishdir, chunki idoraviy tartibga solish aniq belgilangan ijtimoiy munosabatlar sohalariga nisbatan qo'llanishi va shunga muvofiq ravishda normativ tarzda belgilangan chegaralarga ega bo'lishi lozim. U faqatgina haqiqatan zarur bo'lgan hollardagina qo'llanishi kerak. Shu munosabat bilan "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi Qonunda idoraviy normativ-huquqiy ijodkorlikning maqsadi, vazifalari va chegaralarini belgilab qo'yish maqsadga muvofiqligi asoslab berilgan.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi – **"Ichki ishlar vazirligi idoraviy huquq ijodkorligi faoliyatining samaradorligini oshirish istiqbollari"** – ichki ishlar organlari faoliyatini qonuniy va idoraviy-huquqiy tartibga solish o'rtasidagi muvozanatni optimallashtirish, idoraviy normativ-huquqiy ijodkorlikning yuridik

texnikasini takomillashtirish hamda Ichki ishlar vazirligining normativ-huquqiy ijodkorligi samaradorligini oshirish istiqbollarini aniqlash masalalariga bag'ishlangan.

Tadqiqotchining fikricha, yuridik amaliyotda idoraviy normativ-huquqiy ijodkorlik hanuzgacha asossiz tarzda keng qo'llanmoqda. Shubhasiz, idoraviy normativ-huquqiy ijodkorlik zarur. Biroq agar u qonunga asoslanmagan bo'lsa, u qonunlarga emas, birinchi navbatda idoraviy hujjatlarga rioya qilish kerak, degan zararli munosabatni keltirib chiqaradi. Idoraviy hujjatning ahamiyatini bo'rttirib ko'rsatish qonun nufuzining pasayishiga olib keladi va bo'limlarning o'zboshimchaliklariga huquqiy niqob bo'lib xizmat qiladi.

Shu bilan birga, dissertant idoraviy huquq ijodkorligini butunlay to'xtatish zarurligi haqidagi fikrga tanqidiy yondashadi. Har bir konkret mazmunga ega bo'lgan va tartibga solishni talab qiluvchi holatni qonun, farmon yoki hukumat qarorida oldindan nazarda tutish mumkin emas. Shu sababli idoraviy huquqiy ijodkorlik nafaqat maqbul doirada o'rinni, balki zarurdir. Muhimi, idoraviy hujjatlar qonunga mos bo'lishi, uni amalga oshirish uchun qabul qilinishi, qonunni rivojlantirish va aniqlashtirish vositasi bo'lib xizmat qilishi, qonun talablarini rivojlantirish yo'lida qo'llanishi lozim – faqat shundagina maqsadga erishiladi.

Qonunchilik va idoraviy normativ-huquqiy tartibga solish o'rtasidagi muammolarni ko'rib chiqib, dissertant bir qator omillarni hisobga olish zarur, deb hisoblaydi. Birinchidan, amaliyotda qonunchilik hamda idoraviy turdagi normativ-huquqiy ijodkorlik huquqiy tartibga solishning mustaqil "yo'llari" sifatida zarurligi tan olinishi lozim. Ikkinchidan, qonunlarning to'g'ridan to'g'ri amal qilishini kengaytirish g'oyasi qanchalik jozibador bo'lmasin, bu tendensiyaning ham o'z chegaralari mavjud. Bu o'rinda huquqiy tartibga solishning bir qonuniyati namoyon bo'ladi: huquqiy normalarni umumlashtirish ularning aniq shaklda ifodalanishini talab qiladi. Uchinchidan, bu munosabatda qonunchilik tartibga solinishi idoraviy darajadagi tartibga solishdan ustun va imperativ ahamiyatga ega. Ushbu ikki darajadagi tartibga solish o'rtasida raqobat yuzaga kelgan taqdirda, shubhasiz, qonunning ustuvorlik prinsipi amal qiladi.

Tadqiqotchining fikricha, idoraviy normativ-huquqiy ijodkorlikni rivojlantirish va takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari vazirlik tizimida olib borilayotgan islohotlar bilan bog'liq. Idoraviy norma ijodkorligi uchun xos bo'lgan quyidagi tendensiyaning qayd etish mumkin: O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasiga muvofiq, "shaxs va huquq" o'rtasidagi munosabatlarning bosqichma-bosqich o'zgarishi natijasida inson, uning huquq va erkinliklari doimo asosiy e'tiborda bo'ladigan huquqiy tizim yaratilmoqda.

